NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AXMEDOVA YULDUZ HAKIMJON QIZI

OLIY TA’LIMDA GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI RUS TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Texnika oliy ta’lim tashkilotlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan-2026

UDK: 378.016:811.161.1:004.9

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Axmedova Yulduz Xakimjon qizi
Oliy ta’limda geymifikatsiya texnologiyalari orqali rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Texnika oliy ta’lim tashkilotlari misolida) 3

Ахмедова Юлдуз Ҳакимжон кизи
Совершенствование методики преподавания русского языка в высшем образовании посредством геймификационных технологий (на примере технических вузов)..... 27

Akhmedova Yulduz Hakimjon kizi
Improving the methodology of teaching the russian language in higher education through gamification technologies (based on the example of technical higher education institutions) 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 62

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AXMEDOVA YULDUZ HAKIMJON QIZI

OLIY TA’LIMDA GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI RUS TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Texnika oliy ta’lim tashkilotlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9118 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namspi.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta`lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Babashev Farxad Aytmuratovich** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abdullayev Safibullo Xabibullayevich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Abduvohidov El’yor Abduxamidovich pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “3” 12 soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ A119-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “20” 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil “8” 10 dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi).

X.Yo.Najmiddinova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor.

M.N.Qo‘ldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

M.R.Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, k.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. “UNESCO Digital Learning Week 2025”[1] xalqaro ta’lim dasturida ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar orqali o‘qitish samaradorligini oshirish muhim vazifalar qatorida belgilangan. Globallashuv, raqamli muloqot muhitining kengayishi hamda kasbiy faoliyatda ko‘p tillilikka bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi xorijiy tillarni, jumladan, rus tilini o‘qitishda an’anaviy grammatik-tarjima yondashuvlaridan kommunikativ, adaptiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodikalarga o‘tishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida til o‘rganuvchining faolligini oshirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘zlashtirish jarayonini doimiy monitoring qilish va tezkor feedback berish imkonini yaratadigan geymifikatsiya texnologiyalari alohida metodik ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda til ta’limi amaliyotida raqamli platformalar, adaptiv topshiriqlar, ball, reyting, daraja, badge, progress xaritasi, tezkor feedback kabi geymifikatsion mexanizmlar o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish, bilimlarni mustahkamlash va kommunikativ faollikni rivojlantirish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini faqat tashqi nazorat orqali emas, balki shaxsiy natija, bosqichma-bosqich rivojlanish va kichik yutuqlar tizimi orqali rag‘batlantiradi. Texnika oliy ta’lim tashkilotlarida bu masala yanada muhim ahamiyatga ega, chunki mazkur yo‘nalish talabalari rus tilini umumiy muloqot vositasi sifatida emas, balki kasbiy matnlarni tushunish, texnik terminologiyani o‘zlashtirish, laboratoriya natijalarini izohlash, loyiha va ishlab chiqarish jarayonlarini bayon qilish, kasbiy kommunikatsiyada ishtirok etish vositasi sifatida egallashi zarur. Shu jihatdan, texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ta’lim jarayonining interaktivligini oshirish hamda zamonaviy raqamli ta’lim tendensiyalari bilan uyg‘un metodik tizimni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekistonda chet tillarni, jumladan, rus tilini zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish ta’lim sohasidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sifati, uzluksizlik, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga doir asosiy tamoyillar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6094 son “Ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda o‘quv jarayoniga zamonaviy

[1] UNESCO Digital Learning Week 2025 - https://www.unesco.org/sites/default/files/medias/fichiers/2025/08/dlw-2025-agenda-en.pdf

pedagogik texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilangan[2]. Bu esa oliy ta’limda rus tilini o‘qitishda kommunikativ, interaktiv, kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlardan foydalanish uchun muhim normativ-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 8-avgustdagi 489-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarda belgilangan ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o‘qitishni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘quv natijalarini baholashga doir vazifalar texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagogika fanida ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish masalalari M.N.Ochilov, N.N.Azizxo‘jayeva, N.A.Sayidahmedov, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, A.A.Shayusupova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Chet tillarni o‘qitishning nazariy-metodik asoslari, kommunikativ va kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish, o‘quvchilarning hamda talabalarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari L.T.Axmedova, G.X.Bakieva, J.J.Jalolov, B.G‘.Kulmatov, G.T.Mahkamova, S.A.Misirovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida texnika oliygohlarida talabalarning chet til orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, kasbiy muloqotga tayyorlash, til ta’limini mutaxassislik ehtiyojlari bilan bog‘lash masalalari N.I.Gez, I.A.Zimnyaya, E.A.Vereshchagin, N.G.Kostina, N.D.Galskova, O.F.Korobkova, T.A.Kostyukova, I.Yu.Malkova, S.V.Masalova, N.A.Matveyev,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6094 "Ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida" Farmoni.27.10.2020. https://lex.uz/ru/docs/-5068555

E.I.Il’ichov, V.F.Remizova, O.M.Ryabtseva kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Oliy ta’lim talabalarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari G.M.Andreyeva, A.B.Belyayeva, I.N.Zotova, A.A.Leontyev, A.L.Fatixova, L.A.Petrovskaya, K.F.Sedov, G.K.Selevko, chet tillarni o‘rganishning lingvodidaktik jihatlari va ta’limiy texnologiyalarni til ta’limiga tatbiq etish metodikasi esa Y.S.Polat, S.V.Titova, L.S.Konovales, V.V.Korlova, L.A.Podoprigorova, S.V.Fedorova kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda chet til ta’limi, masofaviy va raqamli o‘qitish, interaktiv texnologiyalardan foydalanish hamda talabalarning kommunikativ faolligini rivojlantirish masalalari S.B.Bates, M.K.Barbour, H.Bijnens, J.Sheils, R.Gairns, Z.Yang kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Geymifikatsiya nazariyasi S.Deterding, D.Dixon, R.Khaled, L.Nacke tomonidan asoslangan bo‘lsa, ta’lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va o‘yin elementlari orqali ta’lim samaradorligini kuchaytirish masalalari J.J.Lee, J.Hammer, K.Kapp, K.Werbach, D.Hunter, J.Hamari, J.Koivisto, H.Sarsa, D.Dicheva, C.Dichev va boshqa olimlar ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Rus tilini chet tili sifatida o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari A.A.Mironova, A.A.Erofeeva, V.E.Mineev-Li kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Respublikamiz, MDH va xorijiy mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar, chet tillarni o‘qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, raqamli ta’lim muhiti hamda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha muayyan ilmiy natijalar yaratilgan. Biroq texnika oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish, kasbiy-texnikaviy matnlar, terminologik leksika, ishlab chiqarish va loyiha faoliyatiga oid kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘liq metodik tizimni ishlab chiqish masalasi alohida ilmiy-pedagogik muammo sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat texnika oliy ta’lim tashkilotlari misolida rus tilini o‘qitish metodikasini geymifikatsiya texnologiyalari orqali takomillashtirishni mustaqil tadqiqot muammosi sifatida o‘rganish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining PZ-20170928696-son “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-pedagogik metodologiyasi (Taraqqiyot strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar sharoitida texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun geymifikatsiya texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘quv jarayoniga samarali joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

rus tilini o‘qitishda kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligiga asoslangan geymifikatsion o‘qitish mexanizmini takomillashtirish;

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish modelini takomillashtirish;

rus tili mashg‘ulotlarida geymifikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning metodik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnika oliy ta’lim tashkilotlarining texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga rus tilini raqamli texnologiyalar va geymifikatsiya elementlari asosida kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish jarayoni belgilandi. Tajriba-sinov ishlari Namangan davlat texnika universiteti, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida tashkil etilib, tadqiqotga jami 369 nafar talaba hamda 38 nafar professor-o‘qituvchi jalb qilindi. Talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, tajriba guruhida 185 nafar, nazorat guruhida 184 nafar respondent ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishning mazmuni, shakl, metod, vositalari, o‘yin-topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-pedagogik usullar (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rov, test), retrospektiv tahlil usullari (qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish), matematik-statistik tahlil, shuningdek geymifikatsiya jarayonlarini baholash uchun sun’iy intellekt (AI) asosida ishlovchi analizatorlar va adaptiv o‘quv monitoringi vositalaridan foydalanildi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliy samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari talabalarning texnik terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy nutqiy vaziyatlarda muloqotga kirishish, o‘quv motivatsiyasini saqlab turish, tezkor feedback olish va bosqichma-bosqich rivojlanish ehtiyojlarini lingvistik, nutqiy hamda kasbiy-kommunikativ kompetensiyalar bilan uzviy bog‘lash asosida aniqlashtirilgan;

Rus tilini o‘qitish metodikasining tarkibiy qismi bo‘lgan geymifikatsion o‘qitish mexanizmi kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligi asosida takomillashtirilgan. Mazkur mexanizmda texnik leksikani bosqichma-bosqich o‘zlashtirish va uni kasbiy nutqda qo‘llash laboratoriya, loyiha hamda ishlab chiqarish faoliyatiga oid vaziyatli topshiriqlar bilan bog‘langan, talabalarning dialogik va monologik nutqi esa topshiriq natijalariga ko‘ra beriladigan tezkor teskari aloqa, darajalar va rivojlanish xaritasi orqali izchil rivojlantirilgan;

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish modeli maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayonli va baholash-natijaviy bloklarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv mazmunini raqamli platformalar, interfaol

metodlar, o‘yin-topshiriqlar va refleksiv baholash jarayonlari bilan integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

rus tili mashg‘ulotlarida geymifikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning metodik tizimi texnik terminologiya, kasbiy matnlar, yo‘riqnoma, laboratoriya jarayoni, loyiha taqdimoti va ishlab chiqarish muloqotiga oid o‘yin-topshiriqlar tizimini rol o‘ynash, quiz, mission, level, badge, reyting, muammoli topshiriqlar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion-kommunikativ va refleksiv-baholovchi mezonlar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishga doir “РУССКИЙ ЯЗЫК” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda metodik tavsiyalar tayyorlangan. Mazkur qo‘llanma texnik terminologiya, kasbiy iboralar, grammatik-nutqiy konstruksiyalar, dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishga xizmat qiladi;

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va ommalashtirish maqsadida www.edustart.uz raqamli ta’lim platformasi, t.me/rustili_yulduz Telegram kanali hamda youtube.com/@rustili_yulduzahmedova YouTube kanali tashkil etilgan. Telegram kanalida 5 mingdan ortiq obunachi shakllangan, 2500 dan ortiq post joylashtirilgan bo‘lib, ularning 1000 ga yaqini rus tilini o‘qitish metodikasi, geymifikatsiya va texnika yo‘nalishiga oid kasbiy atamalarni o‘rgatishga bag‘ishlangan;

talabalarning rus tilidagi lingvistik, nutqiy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘yin-topshiriqlar metodik paketi ishlab chiqilgan. Unga rol o‘ynash, vaziyatni modellashtirish, savol-javob aylanishi, texnik muammoni izohlash, laboratoriya jarayonini tavsiflash va kasbiy dialogni davom ettirishga doir mashqlar kiritilgan;

rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishni metodik jihatdan ta’minlash maqsadida “Словарь технических терминов: пособие по профессиональной коммуникации для студентов технических высших учебных заведений: 100 наиболее важных слов и 100 основных выражений”, “Словарь прилагательных (русско-узбекский)” hamda “Русско-узбекский словарь 1000 глаголов” nomli uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlangan. Ushbu materiallar talabalarning leksik zaxirasini boyitish, texnik terminlarni kontekstda tushunish va kasbiy nutqda faol qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajriba-sinov ishlari davomida olingan ko‘rsatkichlarning statistik tahlil orqali tasdiqlanganligi, qo‘llanilgan metodlarning ilmiy asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy va ishonchli manbalarga tayanganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik yondashuv va texnologiyalar amaliy tajriba maydonchalarida aprobatsiyadan o‘tkazilib, pedagogik jarayonga joriy etilgan bo‘lib, bu ularning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishning nazariy-metodik asoslari aniqlashtirilgani bilan izohlanadi. Tadqiqotda rus tilini o‘qitish jarayoni

lingvistik, nutqiy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalar birligida talqin qilinib, texnik terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy dialog va monologni shakllantirish, laboratoriya, loyiha va ishlab chiqarish jarayonlariga oid nutqiy vaziyatlarni modellashtirishning lingvodidaktik imkoniyatlari asoslandi. Shuningdek, kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligiga tayangan geymifikatsion o‘qitish mexanizmi hamda maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayonli va baholash-natijaviy bloklardan iborat o‘qitish modeli takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik yondashuv, o‘yin-topshiriqlar tizimi, baholash mezonlari va o‘quv-uslubiy materiallardan texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot asosida tayyorlangan “РУССКИЙ ЯЗЫК” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma, texnik terminlar va kasbiy iboralarga oid uslubiy ko‘rsatmalar, shuningdek, rol o‘ynash, vaziyatni modellashtirish, savol-javob aylanishi, texnik muammoni izohlash va kasbiy dialogni davom ettirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarning rus tilidagi leksik zaxirasi, nutqiy faolligi va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. edustart.uz platformasi, t.me/rustili_yulduz Telegram kanali va youtube.com/@rustili_yulduzahmedova YouTube kanali esa tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va ommalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar sharoitida texnika oliygohlari talabalariga geymifikatsiya yordamida rus tilini o‘rgatish metodikasi mavzusi doirasida amalga oshirilgan ishlar asosida:

texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari talabalarning texnik terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy nutqiy vaziyatlarda muloqotga kirishish, o‘quv motivatsiyasini saqlab turish, tezkor feedback olish va bosqichma-bosqich rivojlanish ehtiyojlarini lingvistik, nutqiy hamda kasbiy-kommunikativ kompetensiyalar bilan uzviy bog‘lash asosida aniqlashtirilgani to‘g‘risidagi ilmiy yangilikdan Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi faoliyatida foydalanilgan (markazning 2026-yil 8-iyundagi 01/01/683-son ma’lumotnomasi). Natijada, markazning ishlab chiqayotgan loyihalarini sifat ko‘rsatkichlari ortishiga erishilgan;

rus tilini o‘qitishda kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligiga asoslangan geymifikatsion o‘qitish mexanizmi texnik leksikani to‘plash va nutqda qo‘llash, kasbiy dialog va monologlarni shakllantirish, laboratoriya, loyiha va ishlab chiqarish jarayonlariga oid nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, shuningdek, ball, reyting, level, badge, progress xaritasi va rag‘batlantirish elementlari orqali talabaning o‘quv faoliyatini ichki ehtiyoj darajasiga olib chiqish asosida takomillashtirilgani to‘g‘risidagi ilmiy yangilikdan O‘zbekiston Milliy universitetida foydalanilgan (universitetining 2026-yil 14-apreldagi №-04/11-9985-son ma’lumotnomasi). Natijada, dasturiy injinering yo‘nalishi talabalari uchun rus tilida real muloqotga yaqinlashtirilgan vaziyatlarni yaratish, simulyatsiya asosida muammolarni tahlil qilish va o‘z yechimlarini til jihatidan to‘g‘ri ifodalash imkoniyati paydo bo‘lgan;

texnika oliygohlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida

o‘qitish modeli maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayonli va baholash-natijaviy bloklarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv mazmunini raqamli platformalar, interfaol metodlar, o‘yin-topshiriqlar va refleksiv baholash jarayonlari bilan integratsiyalash orqali takomillashtirilgani to‘g‘risidagi ilmiy yangilikdan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti faoliyatida foydalanilgan (universitetining 2026-yil 8-iyuldagi №-11/05-4232/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy texnik vositalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning bilim darajasini oshirishga hamda ularning o‘qishga bo‘lgan ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatgan;

rus tili mashg‘ulotlarida geymifikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bo’yicha ishlab chiqilgan texnik terminologiya, kasbiy matnlar, yo‘riqnoma, laboratoriya jarayoni, loyiha taqdimoti va ishlab chiqarish muloqotiga oid o‘yin-topshiriqlar tizimini rol o‘ynash, quiz, mission, level, badge, reyting, muammoli topshiriqlar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion-kommunikativ va refleksiv-baholovchi mezonlardan 2023–2024-yillarda amalga oshirilgan “ERASMUS+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER: Women Entrepreneurship, Empowerment, Employability and Self-confidence” loyihasini bajarishda foydalanilgan (Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 17-iyundagi №1383-03-sonli ma’lumotnomasi). Natijada professor-o‘qituvchilarning o‘yin asosidagi topshiriqlarni loyihalash va qo‘llash ko‘nikmalari kengaygan, darslarda raqamli resurslardan foydalanish faollashgan hamda baholash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ulushi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika miqiyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan, 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika ilmiy jurnallarda hamda 6 tasi ilmiy konferensiyalarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 155 sahifani tashkil etib, u kirish, uch bob, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalangan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik tadqiqotlar, texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini kasbiy yo‘naltirib o‘qitish hamda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurati asosida yoritilgan. Unda muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun raqamli texnologiyalar sharoitida geymifikatsiya asosida rus tilini o‘rgatishning nazariy-metodologik asoslari”** nomli birinchi bobida texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik, lingvodidaktik va konseptual asoslari yoritilgan. Bobda rus tilini o‘qitish jarayonini zamonaviy raqamli ta’lim muhiti, kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limi, motivatsion-interaktiv metodlar hamda o‘yin mexanikasi bilan uyg‘unlashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Mazkur bobda texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun rus tilini o‘rganish umumiy grammatik bilimlarni egallash yoki lug‘aviy birliklarni yodlash bilan cheklanmasligi, balki texnik terminologiyani kontekstda tushunish, kasbiy matnlarni tahlil qilish, laboratoriya jarayonini tavsiflash, loyiha mazmunini bayon etish va muhandislikka oid kommunikativ vaziyatlarda rus tilidan amaliy foydalanish bilan bog‘liq holda tashkil etilishi lozimligi ko‘rsatib berilgan. Shu nuqtayi nazardan, geymifikatsiya texnologiyalari rus tilini o‘qitishda darsni faqat qiziqarli tashkil etish vositasi emas, balki talabaning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi lingvodidaktik mexanizm sifatida talqin qilingan.

Bobning birinchi paragrafida raqamli texnologiyalar sharoitida til ta’limining metodik paradigmasi o‘zgarib borayotgani tahlil qilingan. P.V.Sysoyev va E.M.Filatov kabi tadqiqotchi olimlar - rus tilini chet tili sifatida o‘qitishda sun’iy intellekt vositalari, chatbotlar, ovozli yordamchilar va korpus texnologiyalarining til amaliyotini kengaytirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi[3]. Ularning fikricha, bunday vositalar professor-o‘qituvchilarning o‘rnini egallamaydi, balki talabaning auditoriyadan tashqari nutqiy mashqlarini qo‘llab-quvvatlaydi, autentik materiallar bilan ishlash va o‘quv avtonomiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur qarash dissertatsiyada sun’iy intellektni alohida tadqiqot predmeti sifatidagi qarashdan ko‘ra, raqamli ta’lim muhiti tarkibidagi yordamchi vosita sifatida talqin qilishga asos bo‘lishi mumkin.

P.V.Sysoyevning 2026-yildagi so‘nggi tadqiqotlaridan birida[4] rus tilini chet tili sifatida o‘qituvchi pedagoglarning sun’iy intellekt sharoitidagi metodik kompetensiyasi masalasiga alohida yondoshilgan. Muallif prompt engineering, o‘quv va nazorat materiallarini ishlab chiqish, shuningdek, ta’lim jarayonini sun’iy intellekt vositalari hamda geymifikatsiya ishtirokida tashkil etish professor-o‘qituvchidan maxsus metodik tayyorgarlikni talab qilishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar ayni bob uchun muhim nazariy xulosani beradi, ya’ni raqamli vosita, geymifikatsion platforma yoki AI imkoniyati o‘z-o‘zidan sifatli ta’limni ta’minlamaydi, u rus tilini o‘qitish maqsadi, kasbiy mazmun-mohiyati, topshiriq turi va baholash mezonlari bilan bog‘langandagina metodik ahamiyat kasb etadi.

E.A.Zhelezniakova raqamli ta’lim, sun’iy intellekt va geymifikatsiyaning rus

---

[3] *Russian Language Studies*, 2024, 22(2), 300–317. https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/view/40562

[4] Sysoyev P.V. Development of the Russian as a foreign language teachers’ methodological competence in the artificial intelligence era. *Russian Language Studies*, 2026. - https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/view/49278

tilini chet tili sifatida o‘qitish mazmunini shakllantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilib[5], u o‘quv materiallarini moslashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yordamchi vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv dissertatsiya mavzusi bilan bevosita bog‘liq. Texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitishda geymifikatsiya va raqamli vositalar talabaning kasbiy ehtiyojlariga mos material tanlash, texnik terminlar asosida mashqlar yaratish va individual o‘quv yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Biroq bu jarayondagi markaziy o‘rinda o‘yin yoki texnologiyaning o‘zi emas, balki rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish metodikasi turadi.

Raqamli geymifikatsion resurslarning didaktik salohiyati L.G.Sharlikova tadqiqotida ham tahlil qilib chiqilgan[6]. Muallif Moodle, Quizlet, LearningApps, Wordwall, Kahoot va Google Forms kabi vositalarning interaktivlik, vizualizatsiya, tezkor baholash va mustaqil ishlashni rag‘batlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, L.B.Beloglazova xorijiy til ta’limini raqamlashtirish jarayonida texnik infratuzilma, o‘qituvchi tayyorgarligi va metodik nazorat yetarli bo‘lmasa, raqamli vositalar kutilgan natijani bermasligi mumkinligini qayd etadi[7]. Bu holat birinchi bobda ilgari surilgan asosiy fikrni ayni haqiqat ekanini tasdiqlaydi. Rus tilini geymifikatsiya asosida o‘qitishda raqamli vosita tanlashdan ko‘ra, uni aniq lingvodidaktik vazifaga bo‘ysundirish muhimdir.

Geymifikatsiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar ushbu yondashuvning motivatsion va kommunikativ imkoniyatlarini asoslaydi. Jumladan, Z.Shen tadqiqotlarida geymifikatsiyani til o‘rganish natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmasligini aytadi, shuningdek, u motivatsiya berishi, talabaning kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari faollashganda samaradorlik ortishini ta’kidlaydi[8]. Tadqiqotchilar S.Chan va N.P.K.Lo tomonidan xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o‘qitish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlilida, geymifikatsiya talabalarning darsdagi ishtiroki, emotsional jalb etilishi va til ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilishi asoslangan. Ushbu qarashlar texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitishda ball, reyting, badge, leaderboard, quiz, role-play, quest va jamoaviy topshiriqlarni talabaning kasbiy nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, geymifikatsiyaga haddan tashqari optimistik yondashish ham to‘g‘ri emas. F.Ameen geymifikatsiyalangan quizlar bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilib, ularning samarasi o‘yin elementlarining tarkibi, ijtimoiy format, topshiriq chastotasi, baholash shakli, platforma mosligi, internet sifati va professor-

[5] Zhelezniakova E.A. Artificial intelligence in forming and organizing the content of teaching Russian as a foreign language. *Russian Language Studies*, 2026. https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/view/49279

[6] Sharlikova L.G. The didactic potential of digital resources in teaching spelling in Russian as a foreign language. 2025. https://journals.rcsi.science/1810-0201/article/view/358588

[7] Beloglazova L.B. va boshqalar. Digitalization of foreign language education: risks and prospects for the practice of teaching Russian as a foreign language. 2024. https://dlt.mgpu.ru/2024/05/23/digitalization-of-foreign-language-education-risks-and-prospects-for-the-practice-of-teaching-russian-as-a-foreign-language

[8] Shen Z. Investigating the influence of gamification on motivation and language learning achievement. *Frontiers in Psychology*, 2024. https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2024.1295709/full

o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi[9]. Demak, geymifikatsiya rus tili darsida avtomatik tarzda yuqori natija beradigan vosita deb qaralmasligi lozim, geymifikatsiya texnik terminologiya, grammatik-nutqiy konstruksiyalar, kasbiy kommunikativ vaziyat va aniq baholash mezonlari bilan bog‘langandagina didaktik qiymatga ega bo‘ladi.

Birinchi bobda “ta’limiy geymifikatsiya”, “interaktiv o‘quv muhiti” va “simulyatsion o‘yin” tushunchalariga tadqiqot maqsadidan kelib chiqib aniqlik kiritilgan. “Ta’limiy geymifikatsiya” - rus tilidagi o‘quv materialini o‘yinlashtirilgan topshiriqlar, bosqichli mashqlar va kasbiy kommunikativ vazifalar orqali o‘zlashtirishga qaratilgan didaktik tizim sifatida izohlangan. “Interaktiv o‘quv muhiti” talaba, o‘qituvchi va raqamli vositalar o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan, rus tilini kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rganishga xizmat qiluvchi raqamli-pedagogik makon sifatida talqin qilingan. “Simulyatsion o‘yin esa real kasbiy va texnologik vaziyatlarni rus tilida modellashtirish, texnik jarayonlarni tavsiflash va muammoli holatlarni izohlashga xizmat qiluvchi o‘quv-geymifikatsion vosita sifatida asoslangan.

Bobning ikkinchi paragrafida texnika oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilayotgan geymifikatsiya texnologiyalarining motivatsion, kommunikativ, diagnostik, adaptiv va integrativ imkoniyatlari tahlil qilingan. Motivatsion imkoniyatlar talabalarda rus tilini o‘rganishga qiziqish, natijaga intilish, o‘zini baholash va dars jarayonida faol ishtirok etish ehtiyojini kuchaytiradi. Kommunikativ imkoniyatlar kasbiy dialog, savol-javob, texnik jarayonni tavsiflash, laboratoriya ishini izohlash va muammoli vaziyatga munosabat bildirish kabi nutqiy faoliyat turlarini rivojlantiradi. Diagnostik imkoniyatlar esa test, quiz, reyting, natijalarni kuzatish va tezkor feedback orqali talabaning o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Mazkur paragrafda “Rus tilini raqamli texnologiyalar va geymifikatsiya asosida o‘rgatishning integrativ pedagogik modeli” ishlab chiqilgan. Model psixologik-motivatsion omillar, texnologik resurslar, ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni hamda monitoring va baholash komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan. Psixologik-motivatsion blok talabalarda rus tilini o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabat, raqobat asosida o‘zini baholash va rivojlanishga intilishni shakllantiradi. Texnologik resurslar bloki raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar, vizual materiallar va onlayn nazorat vositalari orqali o‘quv jarayonini faollashtiradi. Mazmuniy blok texnik terminologiya, kasbiy iboralar, grammatik-nutqiy konstruksiyalar, texnik matnlar va kommunikativ vaziyatlarga asoslangan o‘quv materiallarini qamrab oladi. Monitoring va baholash bloki esa talabaning individual rivojlanishini kuzatish, xatolarni tahlil qilish va professor-o‘qituvchilarning metodik qarorlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. (1-rasmga qarang).

[9] Ameen F. Evidence Without Hype: Gamified Quizzing in EFL and ESL. *Education Sciences*, 2025. https://www.mdpi.com/2227-7102/15/12/1568



1-rasm. "Rus tilini raqamli texnologiyalar va geymifikatsiya asosida o'rgatishning integrativ pedagogik modeli"

Bobning uchinchi paragrafida geymifikatsiya texnologiyalari orqali rus tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Xorijiy ilmiy-metodik tajribalar shuni ko'rsatadiki, Kahoot, Quizlet, Wordwall, LearningApps, Classcraft, Duolingo, Memrise, virtual simulyatsiyalar, leaderboard, badge, role-play va quiz-topshiriqlar til o'rganish jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirish, darsdagi ishtirokini faollashtirish, lug'at boyligini kengaytirish, grammatik ko'nikmalarni mustahkamlash, o'qish, yozish va muloqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq bu tajribalarni texnika oliy ta'lim tashkilotlari sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki rus tilining kasbiy yo'naltirilgan mazmuni, talabalar tayyorgarligi, texnik terminologiya va mavjud raqamli infratuzilmaga moslashtirish zarur.

Birinchi bob yakunida geymifikatsiya texnologiyalarining rus tilini o'qitishdagi vazifalari uch yo'nalishda umumlashtirilgan. Birinchidan, raqamli vositalar talabaning mustaqil o'rganishini qo'llab-quvvatlaydigan interaktiv muhitni shakllantiradi. Ikkinchidan, o'yin mexanikasi talabaning o'quv motivatsiyasi, faolligi va kasbiy muloqotga kirishish tayyorgarligini kuchaytiradi. Uchinchidan, monitoring, reyting va feedback tizimlari o'quv natijalarini aniqlash, xatolarni tahlil qilish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotning birinchi bobida rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o'qitishning nazariy-metodologik asoslari, asosiy tushunchalari, pedagogik imkoniyatlari, integrativ modeli va xorijiy tajribalar bilan bog'liq metodik xulosalari ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur bob dissertatsiyaning keyingi qismlarida rus tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish mazmuni, metodlari, o'yin-topshiriqlari, raqamli platformalari hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun ilmiy-metodik poydevor vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **"Texnika oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga rus tilini o'rgatishda geymifikatsiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari"** nomli ikkinchi bobida texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun rus tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish jarayoniga geymifikatsiya texnologiyalarini joriy etishning mazmuni, didaktik vositalari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik mexanizmlari yoritilgan. Mazkur bob birinchi bobda

asoslangan nazariy-metodologik qarashlarning amaliy-metodik davomidir. Unda geymifikatsiya rus tili darsiga qo‘shiladigan tashqi o‘yin shakli sifatida emas, balki kasbiy mazmun, o‘quv topshirig‘i, raqamli vosita, monitoring va baholashni o‘zaro bog‘lovchi pedagogik tizim sifatida talqin qilingan.

Bobda texnika oliygohlari talabalariga rus tilini o‘rgatish umumiy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmasligi asoslangan. Talaba texnik matnni tushunishi, kasbiy terminlarni kontekstda qo‘llay olishi, laboratoriya jarayonini tavsiflay olishi, loyiha yoki texnologik yechimni rus tilida bayon qilishi hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq vaziyatlarda muloqotga kirisha olishi zarur. Shu sababli ikkinchi bobda geymifikatsiya texnologiyalarining didaktik qiymati aynan rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq holda ochib berilgan.

Bobning “Geymifikatsiya texnologiyalari asosida rus tilini o‘rgatishda qo‘llaniladigan uslublar mazmuni va zamonaviy didaktik vositalari” deb nomlangan birinchi paragrafida rus tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar texnika yo‘nalishi talabalari ehtiyojlari asosida tahlil qilingan. Unda kommunikativ, kompetensiyaviy, interfaol, muammoli, loyihaviy va geymifikatsion yondashuvlarning o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Kommunikativ yondashuv talabaning rus tilida savol berish, javob qaytarish, fikrni izohlash va kasbiy vaziyatda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv til bilimlarini real faoliyatga tatbiq etish, ya’ni termin, grammatik konstruksiya va nutqiy birliklarni amaliy vaziyatda qo‘llashni nazarda tutadi. Interfaol, muammoli va loyihaviy metodlar esa talabani rus tilida fikrlash, tahlil qilish va yechim taklif etishga yo‘naltiradi.

Mazkur paragrafda geymifikatsiya ana shu yondashuvlarni faollashtiruvchi metodik mexanizm sifatida asoslangan. Ball, reyting, daraja, topshiriq, rag‘bat, musobaqa, jamoaviy hamkorlik va tezkor teskari aloqa kabi elementlar o‘quv mazmunini almashtirmaydi, balki uni o‘zlashtirish jarayonini tartibga soladi va faollashtiradi. Bunda o‘yin mexanikasi talabaning qiziqishini oshirish bilan birga, uning o‘z harakatini rejalashtirish, natijasini kuzatish, xatosini anglash va keyingi bosqichga intilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan rus tili darsida geymifikatsiya motivatsion vosita bo‘lish bilan birga, o‘quv faoliyatini boshqarish va baholashga xizmat qiluvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada rus tilini geymifikatsiya asosida o‘qitishda o‘quv materiallarini tanlash masalasi alohida ahamiyatga ega ekani ko‘rsatib berilgan. Texnik yo‘nalish talabalari uchun dars mazmuni umumiy mavzular bilan cheklanib qolmasligi, balki mutaxassislikka oid terminlar, kasbiy iboralar, texnik matnlar, yo‘riqnomalar, xavfsizlik qoidalari, chizma va sxemalar, laboratoriya topshiriqlari hamda loyiha taqdimotlari bilan boyitilishi lozim. Bunday yondashuv talabaning rus tilini o‘z kasbiy ehtiyoji bilan bog‘lab o‘rganishiga sharoit yaratadi. Natijada til materiali mavhum qoida yoki yodlanadigan so‘zlar majmui sifatida emas, balki kasbiy faoliyatda ishlatiladigan kommunikativ resurs sifatida o‘zlashtiriladi.

Birinchi paragrafda zamonaviy didaktik vositalarning metodik vazifasi ham

aniqlashtirilgan. Kahoot, Quizizz, Wordwall, LearningApps, Quizlet kabi raqamli platformalar rus tilidagi leksik, grammatik va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi yordamchi vositalar sifatida baholangan. Ushbu vositalar orqali termin va ta’rifni moslashtirish, texnik obyektni nomlash, gapni to‘ldirish, savollarga tezkor javob berish, guruhli musobaqa tashkil etish, natijani reyting orqali kuzatish va mustaqil mashq qilish imkoniyati yaratiladi. Biroq bobda raqamli vositaning o‘zi emas, balki uning o‘quv maqsadi, kasbiy mazmun va baholash mezonlari bilan bog‘langan holda qo‘llanishi muhimligi asoslangan.

Bobning “Talabalarga geymifikatsiya texnologiyalari asosida rus tilini o‘rgatishning samarali pedagogik shart-sharoitlari va ularni yaratish mexanizmlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida geymifikatsiyani rus tili ta’limiga samarali joriy etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirilgan. Bunda kasbiy-kommunikativ muhitni shakllantirish, o‘quv materiallarini texnika yo‘nalishiga moslashtirish, o‘yin elementlarini aniq didaktik maqsadga bo‘ysundirish, raqamli ta’lim muhitini tashkil etish, topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra bosqichlash, teskari aloqa va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish hamda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini ta’minlash muhim pedagogik shartlar sifatida belgilangan.

Kasbiy-kommunikativ muhit yaratish rus tili darsining amaliy samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir. Texnik yo‘riqnoma, ishlab chiqarish jarayoni, laboratoriya ishlari, loyiha muhokamasi, muhandislik muammosi yoki texnologik tavsif bilan bog‘liq vaziyatlardan foydalanish talabaning tilga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Bunday sharoitda talaba rus tilini faqat fan sifatida emas, balki kelajak kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan muloqot vositasi sifatida qabul qiladi. Bu esa o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi va darsdagi nutqiy faollikni oshiradi.

Geymifikatsiya elementlarini didaktik maqsadga bo‘ysundirish ham mazkur paragrafning muhim ilmiy-metodik xulosalaridan biridir. Dissertatsiyada o‘yin mexanikasidan foydalanishda tashqi jozibadorlik emas, balki uning aniq o‘quv vazifasiga xizmat qilishi asosiy mezon sifatida belgilangan. Ball yoki reyting talabaning faqat musobaqaga kirishishini emas, balki o‘z natijasini ko‘rishi va keyingi topshiriqda xatosini tuzatishini ta’minlashi zarur. Rolli o‘yinlar va keyslar esa texnik muammoni rus tilida tushuntirish, savol-javobga kirishish, terminni kontekstda qo‘llash va qarorni asoslashga yo‘naltirilgandagina metodik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mazkur paragrafda differensial yondashuv, teskari aloqa va monitoring mexanizmlari geymifikatsiyani joriy etishning zarur tarkibiy qismlari sifatida talqin qilingan. Talabalar rus tili bo‘yicha bir xil tayyorgarlikka ega bo‘lmagani sababli topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab qurilishi lozim. Dastlab terminni tanish, uning ma’nosini aniqlash va so‘z birikmasida qo‘llash kabi topshiriqlar beriladi. Keyingi bosqichlarda talaba terminni gapda ishlatadi, texnik jarayonni izohlaydi, muammoli vaziyat yuzasidan fikr bildiradi va kasbiy dialogda ishtirok etadi. Raqamli platformalar bu jarayonda talabaning topshiriqlarni bajarish darajasi, javob

tezligi, xatolar turi va takrorlash ehtiyojini aniqlash imkonini beradi. Teskari aloqa esa talabaning xatosini anglashiga, to‘g‘ri variantni ko‘rishiga va keyingi faoliyatda uni tuzatishiga yordam beruvchi rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Ikkinchi paragrafda professor-o‘qituvchining metodik tayyorgarligi ham alohida ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan. Geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchidan faqat raqamli platformani bilishni emas, balki topshiriqni dars maqsadiga mos tanlash, uni kasbiy mazmun bilan bog‘lash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va individual yondashuvni ta’minlash ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Shu sababli bobda professor-o‘qituvchining raqamli va metodik kompetensiyasi geymifikatsiyani samarali joriy etishning muhim sharti sifatida asoslangan.

Ikkinchi bobning “Talabalarga geymifikatsiya texnologiyalari asosida rus tilini o‘rgatish metodikasi” deb nomlangan uchinchi paragrafida bevosita metodikaning bosqichlari va amaliy mazmuni ishlab chiqilgan. Ushbu metodika diagnostika, o‘quv mazmunini tanlash, o‘yin-topshiriqlarni loyihalash, dars jarayonida qo‘llash, monitoring va teskari aloqa, refleksiya hamda takomillashtirish bosqichlaridan iborat. Bunday ketma-ketlik rus tilini o‘qitishda geymifikatsiya elementlarini tartibsiz qo‘llashning oldini oladi va ularni aniq natijaga yo‘naltirilgan metodik tizimga birlashtiradi.

Diagnostika bosqichida talabalarning rus tili bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarligi, texnik terminlarni bilish darajasi, og‘zaki va yozma nutq imkoniyatlari, kasbiy muloqotdagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Ushbu ma’lumotlar asosida dars mazmuni va topshiriqlar murakkabligi belgilanadi. O‘quv mazmunini tanlash bosqichida texnik terminlar, kasbiy iboralar, grammatik-nutqiy konstruksiyalar, chizma, sxema, laboratoriya topshirig‘i, loyiha taqdimoti va muammoli vaziyatlar asosiy material sifatida olinadi. Bu jarayon rus tili darsini texnika talabasining real o‘quv va kasbiy ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

O‘yin-topshiriqlarni loyihalash bosqichida topshiriqlar leksik-terminologik, grammatik-nutqiy va kasbiy-kommunikativ yo‘nalishlarga ajratiladi. Leksik-terminologik topshiriqlar terminni aniqlash, ta’riflash va kontekstda qo‘llashga qaratiladi. Grammatik-nutqiy topshiriqlar kelishiklar, fe’l shakllari, predlogli birikmalar, sabab-natija munosabatini bildiruvchi konstruksiyalarni texnik matn va kasbiy vaziyatda ishlatishga xizmat qiladi. Kasbiy-kommunikativ topshiriqlar esa dialog, monolog, loyiha taqdimoti, texnik muammo izohi va laboratoriya jarayonini rus tilida tavsiflash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Metodikaning amaliy shakllari sifatida “Техническое интервью”, “Угадай профессию”, “Инженерный словарь в действии”, savol-javob aylanishi, rolli vaziyatlar, texnik muammoni izohlash va laboratoriya jarayonini tavsiflash kabi topshiriqlardan foydalanish asoslangan. “Техническое интервью” talabani rus tilida kasbiy savollarga javob berish, o‘z mutaxassisligi, bajarilgan loyiha yoki laboratoriya ishi haqida izchil fikr bildirishga o‘rgatadi. “Угадай профессию” kasbiy leksikani faollashtiradi, talaba kasbga xos faoliyat, vosita, jarayon va vazifalarni rus tilida tavsiflaydi. “Инженерный словарь в действии” esa texnik terminlarni ta’rif, vaziyat va nutqiy qo‘llanish bilan bog‘lashga xizmat qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Rus tilini geymifikatsiya asosida o‘qitishda o‘yin-topshiriqlar tizimi

O‘yin-topshiriq turi	Didaktik maqsadi	Rivojlantiriladigan kompetensiya	Kutiladigan natija
“Техническое интервью”	Kasbiy savol-javobni shakllantirish	Dialogik nutq, kasbiy-kommunikativ kompetensiya	Talaba rus tilida kasbiy savollarga javob beradi va fikrini asoslaydi
“Угадай профессию”	Kasbiy leksikani faollashtirish	Leksik-terminologik kompetensiya	Talaba kasb va faoliyat turini rus tilida tavsiflaydi
“Инженерный словарь в действии”	Texnik terminlarni kontekstda qo‘llash	Terminologik va nutqiy kompetensiya	Talaba terminni ta’rif, vaziyat va nutq bilan bog‘laydi
Laboratoriya jarayonini tavsiflash	Monologik nutqni rivojlantirish	Kasbiy monologik nutq	Talaba texnik jarayonni rus tilida izohlaydi
Texnik muammoni yechish	Muammoli vaziyatda muloqot qilish	Kommunikativ va tahliliy kompetensiya	Talaba muammoni rus tilida tushuntiradi va yechim taklif qiladi

Mazkur jadval metodikaning amaliy jihatini umumlashtirib ko‘rsatadi. Unda har bir o‘yin-topshiriq turi aniq didaktik maqsad, rivojlantiriladigan kompetensiya va kutiladigan natija bilan bog‘langan. Bu esa geymifikatsiyani umumiy rag‘batlantirish usuli emas, balki rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishga xizmat qiluvchi metodik tizim sifatida asoslashga imkon beradi. Baholash jarayonida faqat test natijasi emas, balki talabaning texnik terminni to‘g‘ri qo‘llashi, grammatik konstruksiyadan foydalanishi, savol-javobga kirishishi, texnik jarayonni rus tilida izohlashi, kasbiy dialogda qatnashishi va fikrini asoslay olishi hisobga olinadi. Bu yondashuv baholashni formal nazorat darajasidan kompetensiyaviy tahlil darajasiga olib chiqadi. Refleksiya bosqichida esa talaba o‘z natijasini baholaydi, qaysi til materiali yoki nutqiy vaziyatda qiynalayotganini aniqlaydi va keyingi topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘radi.



2-rasm. Oliy ta’limda geymifikatsiya texnologiyalari orqali rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish metodik modeli

Geymifikatsiya texnologiyalarini rus tili faniga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishda tadqiqot doirasida o‘tkazilgan gibrid diagnostik so‘rovnoma natijalari ham inobatga olindi. So‘rovnomaning qog‘oz shaklidagi qismi tajriba-sinov bazasi sifatida belgilangan oliygohlarda tajriba-sinov ishlariga jami 369 nafar talaba va 38 nafar professor-o‘qituvchi jalb qilingan bo‘lib, bu rus tilini texnika yo‘nalishi talabalariga kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish bo‘yicha empirik materiallarni to‘plash uchun qulay metodik asos yaratdi. Shuningdek, so‘rovnomaning onlayn qismi esa Google Forms platformasi[10] orqali tashkil etilib, unda oliy ta’lim vakillari bilan bir qatorda keng ilmiy jamoatchilik vakillari ham o‘z munosabatlarini bildirdi. Umumiy hisobda so‘rovnomada 410 nafar respondent ishtirok etdi. Natijalar respondentlarning 53,2 foizi rus tilini o‘rganishni o‘rtacha, 19,5 foizi qiyin, 4,8 foizi juda qiyin deb baholaganini ko‘rsatdi. Rus tilini mukammal o‘zlashtirishdagi asosiy to‘siqlar sifatida muloqot imkoniyatlarining kamligi, grammatika murakkabligi va lug‘at boyligining yetishmasligi qayd etildi. Ushbu holat texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitishda kasbiy-kommunikativ muhit yaratish, texnik terminlarni kontekstda o‘rgatish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish hamda qayta aloqa va monitoring mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarurligini asoslaydi.

Ikkinchi bobda olib borilgan ilmiy-metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya texnologiyalarini rus tilini o‘qitishga joriy etish faqat raqamli platformadan foydalanish yoki darsga o‘yin elementlarini qo‘shish bilan cheklanmaydi. Uning samaradorligi kasbiy mazmun, metodik maqsad, o‘yin-topshiriq, raqamli vosita, monitoring va baholash mezonlarining uzviy bog‘liqligiga asoslanadi. Shu o‘rinda, ishlab chiqilgan metodika texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida rus tilidagi lingvistik, nutqiy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini o‘rgatishda geymifikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari”** deb nomlangan uchinchi bobida texnika yo‘nalishidagi talabalarga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish metodikasi va tajriba-sinov ishlari natijalari yoritib berilgan.

Rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish uchun ishlab chiqilgan o‘yin-topshiriqlar tizimi, raqamli didaktik vositalar, pedagogik shart-sharoitlar va metodik mexanizmlarning samaradorlik darajasini aniqlash tajriba-sinov ishlarining asosiy yo‘nalishini belgiladi.

Shunga muvofiq, tajriba-sinov jarayonida tajriba guruhida rus tili mashg‘ulotlari geymifikatsion metodika asosida, ya’ni kvestlar, rolli vaziyatlar, savol-javob aylanishi, ball-reyting tizimi, raqamli testlar, jamoaviy topshiriqlar, tezkor feedback va refleksiya elementlari yordamida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa mashg‘ulotlar an’anaviy metodika asosida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlariga tajriba maydonlari sifatida belgilangan Namangan davlat texnika universiteti, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti

[10] Google Forms platformasi - https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSeKl-FqHuKbmz-ibKQROIuDyhgWituXIV9ZvI1TDjaKj_4Gxg/viewform

hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutidan jami 369 nafar talaba jalb qilindi. Respondentlar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, ularning natijalari boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarda qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhi ko‘rsatkichlarini hisoblash hamda natijalarning ishonchliligini aniqlashda matematik-statistik usullardan foydalanildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan oliy ta’lim tashkilotlari va ishtirokchilar tarkibi

Tajriba-sinov bazasi	Umumiy respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Namangan davlat texnika universiteti	130 nafar	67	63
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti	123 nafar	61	62
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	116 nafar	57	59
Jami	**369 nafar**	**185**	**184**

Tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturi rus tilini texnika yo‘nalishida funksional qo‘llashga qaratilib, “leksik-terminologik, grammatik-nutqiy, kasbiy-kommunikativ hamda raqamli-geymifikatsion faollik” mezonlari asosida tuzildi. Har bir mavzuda texnik terminlarni kontekstda qo‘llash, grammatik konstruksiyalarni nutqiy vaziyatlarda ishlatish, kasbiy dialog va monologni shakllantirish hamda raqamli-o‘yinlashtirilgan topshiriqlar orqali talabalar faolligini oshirish ko‘zda tutildi. Mashg‘ulotlarda geymifikatsion vazifa, baholash mezoni va teskari aloqa shakli oldindan belgilandi. Bu yondashuv darslarni izchil, bosqichma-bosqich murakkablashuvchi va natijaga yo‘naltirilgan metodik tizim asosida tashkil etishga imkon berdi.

3-jadval

Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tajriba avvalidagi (T.a.) va tajriba so‘ngidagi (T.s.) umumlashgan natijalari

Baholash mezonlari	Guruhlar	Respondentlar soni	Baholash mezonlari					
			Yuqori		O‘rta		Past	
			T.a.	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**
Leksik-terminologik kompetensiya	Tajriba guruhi	185	48	87	63	73	74	25
	Nazorat guruhi	184	50	49	61	60	73	75
Grammatik-nutqiy kompetensiya	Tajriba guruhi	185	49	88	62	72	74	25
	Nazorat guruhi	184	51	50	60	59	73	75
Kasbiy-kommunikativ kompetensiya	Tajriba guruhi	185	50	90	61	70	74	25
	Nazorat guruhi	184	52	51	59	58	73	75
Raqamli-geymifikatsion faollik	Tajriba guruhi	185	49	89	62	71	74	25
	Nazorat guruhi	184	51	50	60	59	73	75
O‘rtachasi	Tajriba guruhi	185	**49**	**88**	**62**	**72**	**74**	**25**
	Nazorat guruhi	184	**51**	**50**	**60**	**59**	**73**	**75**

Yuqoridagi jadvallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida rus tilini geymifikatsiya asosida o‘qitish barcha mezonlar bo‘yicha ijobiy natija berdi. Leksik-terminologik, grammatik-nutqiy, kasbiy-kommunikativ va raqamli faollik ko‘rsatkichlari oshdi. Bu talabalarning texnik terminlardan foydalanish, nutqiy vaziyatlarda grammatikani qo‘llash, kasbiy muloqotga kirishish va raqamli topshiriqlarda faol ishtirok etish ko‘nikmalari rivojlanganini ko‘rsatadi.

Tajriba va nazorat guruhlari taqqoslanganda, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar soni oshib, past darajadagilar kamaygani, nazorat guruhida esa bunday o‘zgarish sezilmagani aniqlandi. Bu geymifikatsiya, raqamli platformalar, ball-reyting tizimi va tezkor teskari aloqa ta’lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

Natijalar matematik-statistik usullar bilan tekshirilib, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhidan yuqori va statistik jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi. Diagnostik so‘rovnoma ham muloqotni kengaytirish, texnik terminlarni amaliy o‘rgatish, motivatsiyani oshirish va interaktiv topshiriqlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda natijalar umumlashtirilib, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilindi.

4-jadval

Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tajriba avvalidagi (T.a.) va tajriba so‘ngidagi (T.s.) umumlashgan natijalari (oliy ta’lim tashkilotlari kesimida)

Tajriba o‘tkazilgan viloyatlar	Guruhlar	O‘quvchilar soni	Baholash mezonlari					
			Yuqori		O‘rta		Past	
			T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
NamDTU	Tajriba guruhi	67	18	32	22	26	27	9
	Nazorat guruhi	63	17	17	21	20	25	26
TITU	Tajriba guruhi	61	16	29	21	24	24	8
	Nazorat guruhi	62	17	17	20	20	25	25
AndQXAI	Tajriba guruhi	57	15	27	19	22	23	8
	Nazorat guruhi	59	17	16	19	19	23	24
Jami	Tajriba guruhi	**185**	**49**	**88**	**62**	**72**	**74**	**25**
	Nazorat guruhi	**184**	**51**	**50**	**60**	**59**	**73**	**75**

Jadval ma’lumotlari tajriba avvalida oliy ta’lim tashkilotlari kesimida tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro yaqin bo‘lganini ko‘rsatadi. Namangan davlat texnika universitetida tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar 18 nafar, nazorat guruhida 17 nafarni tashkil etgan. Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universitetida bu ko‘rsatkich mos ravishda 16 va 17 nafar, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida esa 15 va 17 nafar bo‘lgan. Bu tajriba boshlanishida guruhlar tayyorgarlik darajasi bo‘yicha keskin farq qilmaganini bildiradi.

Tajriba yakunida tajriba guruhlarida ijobiy o‘sish kuzatildi. Namangan davlat texnika universitetida yuqori darajadagi talabalar soni 18 nafardan 32 nafarga, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universitetida 16 nafardan 29 nafarga, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida esa 15 nafardan 27 nafarga oshgan. Past darajadagi talabalar soni esa mos ravishda 27 nafardan 9 nafarga, 24 nafardan 8 nafarga va 23 nafardan 8 nafarga kamaygan.

Nazorat guruhlarida esa bunday sezilarli ijobiy siljish qayd etilmadi. Umumiy natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar soni 49 nafardan 88 nafarga ko‘tarilgan, past darajadagilar esa 74 nafardan 25 nafargacha kamaygan. Nazorat guruhida yuqori darajadagilar 51 nafardan 50 nafarga kamaygan, past darajadagilar esa 73 nafardan 75 nafarga oshgan. Bu natijalar rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish tajriba guruhida leksik-terminologik, grammatik-nutqiy, kasbiy-kommunikativ hamda raqamli-geymifikatsion faollik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining yakuniy tahlili son va foizlarda keltirildi.

4-jadval

Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba so‘ngidagi natijalar (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)		
		Yuqori	o‘rta	past
Tajriba Guruhi	185	88 / 47,6%	72 / 38,9%	25 / 13,5%
Nazorat Guruhi	184	50 / 27,2%	59 / 32,1%	75 / 40,7%

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhi talabalariga nisbatan yuqori natija ko‘rsatgani aniqlandi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar 47,6 foizni, nazorat guruhida esa 27,2 foizni tashkil etdi. Past darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 13,5 foizgacha kamaygan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 40,7 foizni tashkil etdi. Bu holat geymifikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan rus tili mashg‘ulotlari talabalarning o‘zlashtirish darajasi, nutqiy faolligi va kasbiy-kommunikativ ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini bildiradi.

Aniqlangan natijalarni obyektiv baholash maqsadida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi. Statistik tahlilda Styudent t-mezoni va Pirson χ^2 mezonidan foydalanildi. Mazkur mezonlar tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqning tasodifiy yoki statistik jihatdan ahamiyatli ekanini aniqlash imkonini beradi. Matematik-statistik tahlil uchun tajriba avvali va tajriba yakunida olingan natijalar yuqori, o‘rta va past darajalar bo‘yicha variatsion qator sifatida umumlashtirildi. Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



3-rasm. Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining rivojlanganlik diagrammasi

3-rasmdan ko‘rinadiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar soni nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, past darajadagi talabalar soni keskin kamaygan. Tajriba guruhida yuqori daraja 88 nafarni, past daraja 25 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida yuqori daraja 50 nafar, past daraja esa 75 nafar bo‘lgan. Bu holat geymifikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan rus tili mashg‘ulotlari talabalarning o‘zlashtirish darajasi va kasbiy-kommunikativ faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini bildiradi.

5-jadval

Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko‘rsatkichlari

$\overline{X}$	$\overline{Y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X^2_{n,m}$	Δ_x	Δ_y
2,341	1,864	0,497	0,664	30,1%	43,7%	6,004	1,13	36,751	0,10	0,12

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlari hisoblandi. Bizga ma’lumki, tajriba guruhi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich $\bar{X} = 2,341$ ni, nazorat guruhi bo‘yicha esa $\bar{Y} = 1,864$ ni tashkil etdi. Ishonchli chetlanishlar mos ravishda $\Delta x = 0,10$ va $\Delta y = 0,12$ ga teng bo‘ldi.

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlandi:

$K = (\bar{X} - \Delta x) / (\bar{Y} + \Delta y) = (2,341 - 0,10) / (1,864 + 0,12) = 2,241 / 1,984 \approx 1,13 >$

Bilish darajasi ko‘rsatkichi esa quyidagicha hisoblandi:

$Kbdb = (\bar{X} - \Delta x) - (\bar{Y} + \Delta y) = (2,341 - 0,10) - (1,864 + 0,12) = 2,241 - 1,984 = 0,257 > 0.$

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi birdan katta, bilish darajasi ko‘rsatkichi esa noldan yuqori qiymatga ega. Bu tajriba guruhida rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish nazorat guruhiga nisbatan yuqori natija berganini bildiradi.

Styudent t-mezoni bo‘yicha $Tx,y = 6,004$ bo‘lib, ushbu qiymat kritik qiymatdan

yuqori ekani tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanini ko‘rsatdi. Pirson χ^2 mezoni bo‘yicha $\chi^2 = 36{,}751$ natija olinib, $p < 0{,}001$ darajasida ahamiyatli farq mavjudligi aniqlandi. Demak, tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar tasodifiy emas, balki qo‘llanilgan geymifikatsion metodikaning samaradorligi bilan izohlanadi.

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi $K = 1{,}13$ bo‘lib, tajriba guruhlarida rus tilini o‘zlashtirish natijalari nazorat guruhiga nisbatan 13% yuqori ekanini ko‘rsatdi. Bu kasbiy yo‘naltirilgan, interaktiv va geymifikatsion yondashuv talabalarning leksik-terminologik, grammatik-nutqiy, kasbiy-kommunikativ hamda raqamli faolligini rivojlantirishda samarali ekanini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar o‘yin-topshiriqlar, raqamli platformalar, ball-reyting tizimi, tezkor teskari aloqa va refleksiv baholash elementlari rus tilini o‘qitish samaradorligini oshirganini ko‘rsatdi. Demak, ishlab chiqilgan metodika texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining lingvistik, nutqiy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

“Oliy ta’limda geymifikatsiya texnologiyalari orqali rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari talabalarning texnik terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy nutqiy vaziyatlarda muloqotga kirishish, o‘quv motivatsiyasini barqaror saqlash, tezkor teskari aloqa olish va bosqichma-bosqich rivojlanish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liqligi asoslandi. Bu xususiyatlar lingvistik, nutqiy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni bilan uzviy aloqador holda talqin qilindi.
2. Rus tilini texnika yo‘nalishi talabalariga o‘qitishda kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligi muhim metodik asos ekanligi aniqlandi. Kommunikativ funksiya talabaning kasbiy dialog, monolog va muammoli vaziyatlarda rus tilida muloqotga kirishishini ta’minlasa, kumulyativ funksiya texnik leksika, kasbiy iboralar va grammatik-nutqiy konstruksiyalarni bosqichma-bosqich to‘plash hamda amaliy nutqda qo‘llashga xizmat qilishi ko‘rsatib berildi.
3. Geymifikatsion o‘qitish mexanizmi texnik leksikani o‘zlashtirish, kasbiy dialog va monologlarni shakllantirish, laboratoriya, loyiha va ishlab chiqarish jarayonlariga oid nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, shuningdek, ball, reyting, level, badge, progress xaritasi va rag‘batlantirish elementlari orqali talabaning o‘quv faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirildi.
4. Texnika oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga rus tilini geymifikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish modeli maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayonli va baholash-natijaviy bloklarning o‘zaro aloqadorligi asosida takomillashtirildi. Mazkur model kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv mazmunini raqamli platformalar, interfaol metodlar, o‘yin-topshiriqlar va refleksiv baholash jarayonlari bilan integratsiyalash imkonini berdi.

5. Rus tili mashg‘ulotlarida geymifikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning metodik ta’minoti texnik terminologiya, kasbiy matnlar, yo‘riqnoma, laboratoriya jarayoni, loyiha taqdimoti va ishlab chiqarish muloqotiga oid o‘yin-topshiriqlar tizimi asosida takomillashtirildi. Rol o‘ynash, quiz, mission, level, badge, reyting va muammoli topshiriqlar talabalarning rus tilidagi o‘quv faolligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

6. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “РУССКИЙ ЯЗЫК” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, metodik tavsiyalar, texnik terminlar va kasbiy iboralarga oid lug‘aviy materiallar talabalarning rus tilidagi leksik zaxirasini boyitish, texnik terminlarni kontekstda tushunish hamda kasbiy nutqda faol qo‘llashga xizmat qilishi asoslandi.

7. www.edustart.uz raqamli ta’lim platformasi, t.me/rustili_yulduz Telegram kanali va youtube.com/@rustili_yulduzahmedova YouTube kanali orqali rus tilini o‘qitishga oid raqamli resurslar, kasbiy atamalar, interaktiv materiallar va geymifikatsion topshiriqlarni ommalashtirish imkoniyati yaratildi. Bu vositalar rus tilini auditoriya va auditoriyadan tashqari ta’lim jarayonida uzviy o‘rganishga xizmat qilishi ko‘rsatildi.

8. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar soni oshib, past darajadagi talabalar ulushi kamaydi. O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi K = 1,13 ni tashkil etib, tajriba guruhlarida rus tilini o‘zlashtirish natijalari nazorat guruhiga nisbatan 13 foiz yuqori ekani aniqlandi. Styudent t-mezoni va Pirson χ^2 mezoni bo‘yicha olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqladi.

TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Texnika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitishda o‘quv materiallarini umumiy mavzular bilan cheklamasdan, texnik terminologiya, kasbiy iboralar, yo‘riqnomalar, laboratoriya jarayonlari, loyiha taqdimotlari va ishlab chiqarish muloqotiga oid nutqiy vaziyatlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

2. Rus tilini o‘qitishda kommunikativ va kumulyativ funksiyalar uyg‘unligini ta’minlash uchun texnik terminlarni alohida yodlatish bilan cheklanmasdan, ularni dialog, monolog, loyiha muhokamasi, laboratoriya hisoboti va kasbiy vaziyatlar orqali nutqda qo‘llashga yo‘naltirish tavsiya etiladi.

3. Professor-o‘qituvchilarning geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida qisqa muddatli seminar-treninglar, amaliy mahorat darslari va raqamli didaktik vositalardan foydalanishga oid metodik kurslarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Rus tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishda “Русско-узбекский словарь 1000 глаголов” kabi yordamchi materiallardan dars jarayoni va mustaqil ta’limda kompleks foydalanish tavsiya etiladi.

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АХМЕДОВА ЮЛДУЗ ХАКИМЖОН КИЗИ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ГЕЙМИФИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
(на примере технических высших учебных заведений)

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (русский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ наукам

Наманган – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/Ped9118.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.namspi.uz) и на Информационном образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Бабашев Фархад Айтмуратович** кандидат педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич** доктор педагогических наук (DSc), профессор
	Абдувоҳидов Элёр Абдухамидович доктор философии по педагогических наук (PhD), доцент
Ведущая организаця:	**Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета № PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 при Наманганском государственном педагогическом институте, присуждающего учёные степени, "3" 12 2026 года в 13⁰⁰ часов. (Адрес: 160119, г. Наманган, ул. Уйчи, дом 316. Тел.: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогического института (зарегистрирована под №). (Адрес:160119, г. Наманган, ул. Уйчи, дом 316. Тел.: (998) 69 211-11-69.

Автореферат диссертации разослан «20» 11 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № 1 от «16» 11.10 2026 года)

Х.Ё.Нажмиддинова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

М.Н.Кулдашева
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), доцент

М.Р.Кадырханов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, к.ф.н. (DSc), профессор

ВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы. В мире совершенствование методики обучения иностранным языкам признаётся одним из приоритетных направлений современной системы образования. В международной образовательной программе “UNESCO Digital Learning Week 2025”[11] индивидуализация образовательного процесса, развитие коммуникативной компетенции студентов, повышение эффективности обучения посредством цифровых технологий определены в числе важных задач. Глобализация, расширение среды цифровой коммуникации, а также возрастающая потребность в многоязычии в профессиональной деятельности обусловливают необходимость перехода от традиционных грамматико-переводных подходов в обучении иностранным языкам, в том числе русскому языку, к коммуникативным, адаптивным и личностно-ориентированным методикам. Особенно в высших образовательных учреждениях особое методическое значение приобретают технологии геймификации, создающие возможность повышения активности изучающего язык, формирования навыков самостоятельной работы, постоянного мониторинга процесса усвоения и предоставления оперативной обратной связи.

В мировой практике языкового образования широко применяются такие геймификационные механизмы, как цифровые платформы, адаптивные задания, баллы, рейтинг, уровень, badge, карта прогресса, оперативная обратная связь, которые служат средствами усиления учебной мотивации, закрепления знаний и развития коммуникативной активности. Такой подход стимулирует участие студента в образовательном процессе не только посредством внешнего контроля, но и через систему личного результата, поэтапного развития и малых достижений. В технических высших образовательных организациях данный вопрос приобретает ещё более важное значение, поскольку студенты данного направления должны овладевать русским языком не только как средством общего общения, но и как инструментом понимания профессиональных текстов, усвоения технической терминологии, объяснения результатов лабораторных работ, описания проектных и производственных процессов, участия в профессиональной коммуникации. В этом аспекте совершенствование методики обучения русскому языку на основе технологий геймификации в технических высших образовательных организациях обусловливает необходимость развития профессионально-коммуникативной компетенции студентов, повышения интерактивности образовательного процесса, а также разработки методической системы, согласованной с современными тенденциями цифрового образования. Данное обстоятельство определяет актуальность темы исследования.

В Узбекистане совершенствование обучения иностранным языкам, в том

[11] UNESCO Digital Learning Week 2025 - https://www.unesco.org/sites/default/files/medias/fichiers/2025/08/dlw-2025-agenda-en.pdf

числе русскому языку, на основе современных педагогических и цифровых технологий последовательно развивается как одно из приоритетных направлений реформ в сфере образования. В Законе Республики Узбекистан “Об образовании” определены основные принципы, касающиеся качества образования, непрерывности, государственных образовательных стандартов, учебных программ, а также развития знаний, умений и компетенций обучающихся. В Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-6094 “О мерах по цифровизации системы образования”[12] определены меры, направленные на развитие цифрового образования, а также задачи по внедрению современных педагогических технологий в учебный процесс. Это служит важной нормативно-методической основой для использования коммуникативного, интерактивного, компетентностного и цифрового подходов в обучении русскому языку в высшем образовании.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан “Об образовании”, постановлении Первого Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года № ПҚ-1875 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков”, Стратегии “Узбекистан — 2030”, Указе Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2025 года № ПФ-76 “О мерах по обеспечению качества образования и совершенствованию системы оказания образовательных услуг”, постановлениях Кабинета Министров от 27 марта 2024 года № 157 “О мерах по совершенствованию порядка разработки и внедрения государственных образовательных стандартов и государственных образовательных требований”, от 8 августа 2024 года № 489 “Об утверждении отдельных нормативно-правовых актов в сфере регулирования деятельности Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан”, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности. Задачи, определённые в указанных документах, по повышению качества образования, совершенствованию обучения иностранным языкам, внедрению цифровых технологий и оценке учебных результатов обусловливают необходимость совершенствования методики обучения русскому языку на основе технологий геймификации в технических высших образовательных организациях.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.

Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий Республики — «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В педагогической науке нашей

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6094 "Ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida" Farmoni.27.10.2020. https://lex.uz/ru/docs/-5068555

республики вопросы технологизации образовательного процесса, формирования профессиональной компетентности, обучения на основе компетентностного подхода, а также внедрения современных педагогических технологий в образовательную практику исследованы такими учёными, как М.Н.Очилов, Н.Н.Азизходжаева, Н.А.Сайидахмедов, Н.А.Муслимов, У.И.Иноятов, А.А.Шаюсупова. Теоретико-методические основы обучения иностранным языкам, использование коммуникативного и профессионально-ориентированного подходов, вопросы развития лингвистических и коммуникативных компетенций учащихся и студентов освещены в научных работах Л.Т.Ахмедовой, Г.Х.Бакиевой, Ж.Ж.Жалолова, Б.Г.Кулматова, Г.Т.Махкамовой, С.А.Мисирова.

В странах Содружества Независимых Государств вопросы развития коммуникативной компетентности студентов технических вузов средствами иностранного языка, их подготовки к профессиональному общению, а также соотнесения языкового образования с потребностями специальности изучены такими учёными, как Н.И. Гез, И.А.Зимняя, Е.А.Верещагин, Н.Г.Костина, Н.Д.Гальскова, О.Ф.Коробкова, Т.А.Костюкова, И.Ю.Малкова, С.В.Масалова, Н.А.Матвеев, Е.И.Ильичов, В.Ф.Ремизова, О.М.Рябцева. Вопросы формирования коммуникативной компетенции у студентов высшего образования исследованы Г.М.Андреевой, А.Б.Беляевой, И.Н.Зотовой, А.А.Леонтьевым, А.Л.Фатиховой, Л.А.Петровской, К.Ф.Седовым, Г.К.Селевко, а лингводидактические аспекты изучения иностранных языков и методика внедрения образовательных технологий в языковое образование — такими исследователями, как Е.С.Полат, С.В.Титова, Л.С.Коновалес, В.В.Корлова, Л.А.Подопригорова, С.В.Федорова.

В зарубежных странах вопросы иноязычного образования, дистанционного и цифрового обучения, использования интерактивных технологий, а также развития коммуникативной активности студентов изучены такими учёными, как S.B.Bates, M.K.Barbour, H.Bijnens, J.Sheils, R.Gairns, Z.Yang. Теория геймификации обоснована S.Deterding, D.Dixon, R.Khaled, L.Nacke, тогда как вопросы использования технологий геймификации в образовательном процессе, повышения учебной мотивации и усиления эффективности обучения посредством игровых элементов освещены в научных исследованиях J.J.Lee, J.Hammer, K.Kapp, K.Werbach, D.Hunter, J.Hamari, J.Koivisto, H.Sarsa, D.Dicheva, C.Dichev и других учёных. Вопросы использования технологий геймификации при обучении русскому языку как иностранному изучены такими исследователями, как А.А.Миронова, А.А.Ерофеева, В.Е.Минеев-Ли.

Анализ научных источников показывает, что в нашей республике, странах СНГ и зарубежных государствах достигнуты определённые научные результаты по вопросам педагогических технологий, методики обучения иностранным языкам, развития коммуникативной компетенции, цифровой образовательной среды, а также использования технологий геймификации. Однако вопрос обучения русскому языку студентов технических высших

образовательных организаций на основе технологий геймификации, разработки методической системы, связанной с профессионально-техническими текстами, терминологической лексикой, коммуникативными ситуациями производственной и проектной деятельности, как отдельная научно-педагогическая проблема изучен недостаточно. Данное обстоятельство определяет необходимость исследования совершенствования методики обучения русскому языку посредством технологий геймификации на примере технических высших образовательных организаций в качестве самостоятельной исследовательской проблемы.

Связь диссертационного исследования с планом научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертационная работа. Диссертационная работа выполнена в рамках прикладного грантового проекта Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека № PZ-20170928696 на тему «Концептуально-педагогическая методология анализа и реализации процесса реформ в Узбекистане (на основе Стратегии развития)».

Цель исследования. Заключается в совершенствовании методики обучения русскому языку на основе технологий геймификации для студентов технических высших образовательных организаций в условиях цифровых технологий и её эффективном внедрении в учебный процесс.

Задачи исследования. уточнить педагогико-психологические особенности использования технологий геймификации в профессионально-ориентированном обучении русскому языку студентов технических высших образовательных организаций;

усовершенствовать механизм геймификационного обучения, основанный на взаимосвязи коммуникативной и кумулятивной функций в обучении русскому языку;

